

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI



NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI



**ILMIY
AXBOROTNOMA**

2022

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: O'quv ishlari bo'yicha prorektor D.S.Xolmatov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.n., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, k.f.d., prof. T.Azizov, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., dots. A.Batashov, b.f.d. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.n., Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. N.Zaynobiddinova, f.f.n., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva, fil.f.n., dots. S.Misirov.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.n., dots. S.Abdullayev.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2022-yil 10-dekabrda kengaytirilgan 12-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 12). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2022



- ezigulik, xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, keyin qilarman degan o'ylardan voz kech, shayton yo'ldan uradigan shoshma-shosharlik bilan emas, tafakkur va idrok bilan ish tut;

- sotib olgan narsangda aldanib, moliyaviy ziyon-zarar ko'ruving sen bundan kelgusida ko'radigan ziyonlaringdan, ancha yengilroq va osonroqdir;

- yaramas va xasis kishining eshigini taqqillatishda saxiy va mo'tabar kishining oziq tishini sug'urish bilan barobar ranju izza bordir. Ya'ni, saxiy kishi ishi tushib zaruratsdan xasis odamning eshigini qoqsa, u buni o'zining oziq tishini sug'urtirgandek ozoru aziyat chekkan holda qiladi.

Xulosa va takliflar

Musulmon olamida Burhoniddin Marg'inoniyning hayotini, asarlaridagi g'oyalarning mazmun-mohiyatini o'rganishga bo'lgan qiziqish doimo katta bo'lgan. Allomaning diniy, huquqiy, falsafiy qarashlari bugungi kunda o'quvchi yoshlarimizni yurtimizdan chiqqan buyuk olim haqidagi ma'lumotlardan o'rganishga dav'at etadi. Shuning bilan bir qatorda buyuk fiqhshunosning asarlari mamlakatimiz ma'naviyati tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi va yoshlarni yuksak fazilatlarga ega qilib tarbiyalashda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қorieв О.А. “Бурҳониддин ал-Марғиноний – ҳуқуқшунос”// Шарқшунослик. 1993 й.
2. Маҳмуд Ҳасаний. Ал-Марғинонийнинг “Ҳидоя” асари ва унга ёзилган шарҳлар. Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, Т. 2000. – Б.23.
3. Kattayev K. Imom Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Ali Sug'diy va huquqshunoslik. Samarqand, 2007. –B. 21-27.
4. Isxakov .S.A. “Burhoniddin Marg'inoniyning “Hidoya” asari muhim huquqiy manba”. Avtoreferat. Toshkent.:2002-y.

TINCHLIK, ADOLAT VA SAMARALI BOSHQARUV BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Pulatov Jaxongir Nazirovich

Navoiy viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

pulatovjahongir00@gmail.com

Annotatsiya: maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan barqaror rivojlanish maqsadlari, mamlakatimizning 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning mazmun mohiyati, tinchlik, adolat, bag'rikenglik, barqarorlik, qonun ustuvorligini ta'minlash, zo'ravonlikka barham berish, korrupsiya va poraxo'rlikni oldini olish, boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining samaradorligi, hisobdorligi va shaffofligini oshirish, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining ishtirokini kengaytirish barqaror rivojlanish kafoloti ekanligi nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: barqarorlik, taraqqiyot, adolat, tinchlik, forovonlik, insonparvarlik, kreativlik, kompetentlik, inson intellekti



МИР, СПРАВЕДЛИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Пулатов Джахонгир Назирович

Доцент кафедры «Методология социально-экономических наук», доктор
философских наук (PhD)
pulatovjahongir00@gmail.com

Аннотация: в статье описываются цели устойчивого развития, принятые Организацией Объединенных Наций, содержание национальных целей и задач в области устойчивого развития нашей страны до 2030 года, мира, справедливости, толерантности, стабильности, обеспечения правопорядка, насилия. Теоретически он основан на том, что устранение, предупреждение коррупции и взяточничества, повышение эффективности, подотчетности и прозрачности деятельности государственных органов на всех уровнях управления, расширение участия граждан, субъектов предпринимательства и организаций гражданского общества в процессе принятия решений является гарантией устойчивого развития.

Ключевые слова: стабильность, развитие, справедливость, мир, процветание, человечество, творчество, компетентность, человеческий интеллект

PEACE, JUSTICE AND EFFECTIVE GOVERNANCE AS THE MAIN FACTOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Pulatov Jakhongir Nazirovich

Associate Professor of the Department "Methodology of Socio-Economic Sciences", Doctor
of Philosophy (PhD)
pulatovjahongir00@gmail.com

Annotation: the article describes the goals of sustainable development adopted by the United Nations, the content of national goals and tasks in the field of sustainable development of our country until 2030, peace, justice, tolerance, stability, ensuring the rule of law, violence. It is theoretically based on the fact that eliminating, preventing corruption and bribery, increasing the efficiency, accountability and transparency of state bodies at all levels of management, expanding the participation of citizens, business entities and civil society organizations in the decision-making process is a guarantee of sustainable development.

Keywords: stability, development, justice, peace, prosperity, humanity, creativity, competence, human intelligence.

Kirish

Bugungi kunda jamiyat barqaror rivojlanishi 2015-yilning sentyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyusiyasiga asosan 2030-yilgacha bo'lgan davrda 17 maqsadni o'z ichiga olgan barqaror rivojlanish maqsadlari asosida taraqqiy etmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlari – kambag'al, boy va o'rtacha rivojlangan barcha mamlakatlar tomonidan harakatga chorlovchi o'ziga xos da'vatdir. Ular

bizning sayyoramizning farovonligi va himoyasini yaxshilashga qaratilgan. Dunyo mamlakatlari qashshoqlikni bartaraf etish, iqtisodiy o'sishni kuchaytirish va ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoyani ta'minlash, shuningdek, iqlim o'zgarishi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlar bilan birgalikda qabul qilinishi zarurligini tan oladilar. Bu kabi ustuvor vazifalarga mamlakatimiz davlat siyosati darajasida e'tibor qaratmoqda. "Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat" [1] ekanligi barqaror rivojlanishning kafolatidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi insondir. Taraqqiyot uchun, avvalo, insonning o'zi taraqqiy etishi kerak, inson esa taraqqiyotni barpo qiladi, bu eng to'g'ri yo'ldir. Shu munosabat bilan 2030- yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimiz barqaror taraqqiyot sari rivojlanayotganligiga ishoradir.

Barqaror rivojlanish, tinchlik, adolat, samarali boshqaruvga oid sharq mutaffakirlari Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Burxoniddin Marg'inoniy, Alisher Navoiylar jamiyat barqaror rivojlanishi ilm-fanning qanchalik rivojlanganligiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, Abu Rayxon Beruniy[2] o'zining Meneralogiya asarida jamiyatda tinchlik va farovonlik vujudga kelishi ilm-fanning ravnaq topishiga bog'liq jarayon deb hisoblaydi. Barqaror rivojlanish masalasi xorijlik olimlar: amerikalik D.Kellner bozor munosabati sharoitida insonni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash lozimligini, germaniyalik J.Xabermas[3] jamiyatni modernizasiyalashda inson manfaatlari va taraqqiyoti masalalarining uzviyligini ta'minlash kabi muammolarni o'rganishga oid tadqiqotlar olib borgan. MDH davlatlarida L.Tiximirov, V.Chirkin, S.Dyatlov[4] barqaror rivojlanishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan tadqiq qilgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan maxsus tadqiq etilmagan bo'lsa-da, shu sohaga yaqin muammolar (inson, uning huquq va manfaatlari, davlat boshqaruvi, inson intellekti) ma'lum darajada tahlil etilgan. Jumladan, O'zbekistonlik olimlardan A.Saidov[5] "Demokratik o'zgarishlar va inson taraqqiyoti masalalarining falsafiy-huquqiy asoslari" ni, S.Otamuratov[6] "Jamiyat modernizasiyasida inson manfaatlari muammolari"ni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishgan.

Natijalar va muhokama

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga oid konsepsiyasi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'zaro uzviy bog'langan ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va institutsional birlashgan hayot tarzini shakllantirishni o'z ichiga olgan g'oyalar tizimini qamrab olgan. Ushbu konsepsiyadagi masalalarini hal qilishda insonning o'zi ijtimoiy hayotda faol ishtirok etayotganligi bilan bevosita bog'liq jarayondir. Inson barqaror taraqqiyotning ob'ekti va sub'ekti bo'lib qolmasdan u taraqqiyotning asosiy vositasi va omillaridan biridir. Barqaror rivojlanish dastlab kelajak avlodlarining resurslariga ziyon etkazmasdan hozirgi zamon ehtiyojlarini qondirish deb ta'riflangan. Bu esa, jamiyat barqaror taraqqiyoti iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va madaniy o'lchovlar o'rtasidagi muvozanatni kafolatlashga ishoradir.

Jamiyatning rivojlanish darajasi imkoniyatlar tengligiga, jamiyatda aholining turli qatlamlari o'rtasida huquq va majburiyatlar adolat bilan taqsimlanishiga ko'ra baholanishi kerak.

Imkoniyatlar tengligi – mavhum tushuncha emas. Uning mohiyati shundaki irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, millati, diniga qarab huquq va imkoniyatlari taqsimlanishi kerak.

Barqaror rivojlanish insonning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishni, sog'lom muhitni saqlashni hisobga oladi. O'z navbatida, barqaror rivojlanishning avlodlararo o'lchovi, ya'ni kelajak avlodlar uchun bir xil ehtiyojlarni qondirish xavfini tug'dirmaydi. Shu nuqtai-nazardan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga hamohang tarzda rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston tarixida sifat va mazmun jihatdan yangi taraqqiyot davri boshlanganiga alohida e'tibor qaratildi. Bu yangi davrning eng muhim va ustuvor xususiyatlari, avvalo, mamlakatimizda davlat va boshqaruv organlari, barcha rahbarlar bundan buyon o'z faoliyatini "Inson-jamiyat-davlat" va "Inson qadri uchun" degan ezgu tamoyillar asosida olib borishida aks etadi[7]. Barqaror rivojlanishga erishish borasida quyidagi amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- Zo'ravonlikning barcha turlari tarqalishini qisqartirish va ushbu hodisa sababli o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirish;
- bolalar va ayollarga nisbatan zo'ravonlikning barcha turlarini tugatish;
- qonun ustuvorligiga ko'maklashish hamda barcha uchun odil sudlovdan foydalanish bo'yicha teng imkoniyatlarni ta'minlash;
- boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining samaradorligi, hisobdorligi va shaffofligini oshirish;
- boshqaruvning barcha bosqichlarida qarorlarni tayyorlash va qabul qilish jarayonida fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining ishtirokini kengaytirish;
- 2030-yilgacha barcha uchun yuridik bir xillikni, shu jumladan, tug'ilishni qayd etishni ta'minlash;
- fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqini amalga oshirishlari uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot oshkoraligini kuchaytirish hamda fuqarolarning asosiy erkinliklari himoyasini ta'minlash kabi islohotlar davlat dasturi asosida izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Xulosa

Shuni ta'kidlab aytish o'rinliki, mamlakatimizning bugungi taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, islohotlar xalq manfaatlariga xizmat qilishi, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizni dunyo hamjamiyatiga integrasiyalashuvi bo'yicha maqsadlarimizga yetishishda hal qiluvchi omil bo'lib qoladi. Bu esa, O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosati bu maqsadlarga to'liq hamohang bo'lib, aholi uchun qulay shart-sharoit yaratish, odamlar salomatligini muhofazalash, iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.Мирзиёев. "Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик -ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак". -Тошкент: Ўзбекистон, 2017 .- 53 б.



2. Абу Райхон Беруний. Феруза (Жавоҳирлар ҳақида нақл ва ҳикоятлар).-Тошкент.: 1993.-Б.42
3. Habermas J. Postmetaphysical Thinking.-Cambridge: Polity, 1992.- pp. 127-132.
4. Дятлов С.А. Теория человеческого капитала: Учебное пособие. – СПб.: СПбУЭФ, 1996. - С.72.
5. Саидов А. Философско-правовое наследие Иммануила Канта и современная юриспруденция. –Ташкент: 2008
6. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик (сиёсий-фалсафий таҳлил).-Тошкент: 2013.
7. Sh.mirziyoyev “Yangi O‘zbekisto taraqqiyot strategiyasi” T:. “O‘zbekiston” 2022. 10 -bet

MA'RIFATLI JAMIYAT BARPO ETISHDA AXBOROT-MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Xudayberdiyev Asomiddin Kurbonkulovich
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar
pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat barpo etishda axborot-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash masalalari va «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» g‘oyasi asosida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida olib borilayotgan yangilanishlar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’rifatli jamiyat barpo etish, axborot-mafkuraviy xavfsizlik, globallashuv, axborot xuruji, milliy mafkura, «ommaviy madaniyat»

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРИ ПОСТРОЕНИИ ПРОСВЕЩЕННОГО ОБЩЕСТВА

Худайбердиев Асомиддин Курбонкулович
Доцент кафедры социальных наук, педагогики и психологии
Ташкентский педиатрический медицинский институт

Аннотация: В данной статье выражается мнение по вопросам обеспечения информационно-идеологической безопасности в условиях становления просвещенного общества Узбекистана и проводимых обновлений в социально-экономической и политической сферах на основе идеи «Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари».

Ключевые слова: Построение просвещенного общества, информационно-идеологическая безопасность, глобализация, информационная атака, национальная идеология, «массовая культура»

ISSUES OF ENSURING INFORMATION AND IDEOLOGICAL SECURITY IN BUILDING AN ENLIGHTENED SOCIETY

Khudayberdiev Asomiddin Kurbonkulovich
Tashkent Institute of Pediatric Medicine, Social Sciences
associate professor of the department of pedagogy and psychology



09.00.00

**ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES**

24	Халқаро ахборот хавфсизлиги тизимининг шаклланиши ва ривожланиши Алиев О.А	148
25	Burhoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarini falsafaiy mohiyati Ergasheva H.S,.....	153
26	Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida Pulatov J	156
27	Ma'rifatli jamiyat barpo etishda axborot-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash Xudayberdiyev A.K	160
28	Маърифат, маърифатли жамият ва инсон ҳақида қарашларнинг тарихий-фалсафий таҳлили Саидаҳмадов Ш.Ш	166
29	Жамоатчилик экологик назоратининг умумий тавсифи Ашуров А.У,.....	171
30	Инсон қалбида бузғунчилик истакларини шаклланишининг фалсафий-антропологик таҳлили Асатуллоев И.А	175
31	Жиноят ва жазо тизимида инсонпарварлик принципни такомиллаштириш масалалари Исмоилов И	180
32	Оилавий муносабатлар инқирози муаммосининг ўзига хос хусусиятлари Иноятлова С.Ж	185
33	Нафосат фалсафасининг моҳияти, мақсади ва вазифалари Кадирова Д.С,.....	192
34	Ёшларнинг медиамаданиятини шакллантириш омиллари Абдуҳолиқова Н.А	198
35	Ҳуқуқий маданият ва демократия уйғунлиги Абдурахманова Н.Х	203
36	Виртуаллик фалсафаси Мирзахмедов А.М	207
37	Жамият трансформациялашувида ижтимоий-маданий технологияларга оид қарашлар Юлдашев С.У	212
38	Тасаввуф таълимотини ўрганишга оид тадқиқотлар тўғрисида баъзи мулоҳазалар Соатов Р	217
39	Шарқ мутафаккирларининг таълим- тарбия борасидаги илмий қарашлари Турсунбоева Н.К	222